

1	<b>Mahsulot toifasi</b>	Asosiy vositalar sotib olish uchun
2	<b>Mahsulot turi</b>	Kredit
3	<b>Sohalar (tarmoqlar)</b>	Risk tomonidan taqiqlangan tarmoqlardan tashqari barcha tarmoqlar
4	<b>Mahsulot kodi</b>	MSE-2
5	<b>Mijoz segmenti</b>	Mikro va kichik biznes
6	<b>Mijoz</b>	Bankning mavjud va potentsial mijozlari ( <i>mikro va kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar</i> )
7	<b>Start up</b>	Ko'zda tutilmagan
8	<b>Kredit maqsadi</b>	Asosiy vositalar sotib olish (shu jumladan, onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish, bino-inshoot qurilishi rekonstruksiya va kapital ta'mirlash)
9	<b>Mahsulot limiti</b>	Mijoz loyihasidan kelib chiqib belgilanadi
10	<b>Kredit foizi (%) yillik</b>	<b>Yillik 26%</b>
11	<b>Kredit maksimal summasi</b>	1) Yuridik shaxslar uchun - 2 600,0 mln.so'mgacha (onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun 5 mln. so'mgacha); 2) Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - 1 300,0 mln.so'mgacha. <i>Mijozning jami majburiyatlari mazkur summalardan oshmasligi lozim</i>
12	<b>Kredit minimal summasi</b>	1) Yuridik shaxslar uchun - 50,0 mln.so'm; 2) Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - 25,0 mln.so'm <i>Onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun belgilanmagan</i>
13	<b>Valyuta</b>	Milliy valyutada
14	<b>Kredit liniyasi</b>	Yopiq
15	<b>Kredit maksimal muddati</b>	Loyihadan kelib chiqib 60 oygacha ( <i>onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun 12 oygacha</i> )
16	<b>Kredit minimal muddati</b>	O'rnatilmagan
17	<b>Boshlang'ich badal</b>	1) Kamida 36% boshlang'ich badal (loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari hisobidan) kiritilganda, kredit hisobiga sotib olinayotgan ko'chmas mulk (jumladan, qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash), transport vositalari, maxsus texnikalar garovi ostida. Asosiy ta'minot rasmiylashtirilgunga qadar ta'minot sifatida kredit qaytmaslik xatari sug'urta polisi olinishi mumkin; 2) Kamida 20% boshlang'ich badal (loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari hisobidan) kiritilganda, kredit hisobiga sotib olinayotgan ko'chmas mulklar (jumladan, qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash), transport vositalari, maxsus texnikalar garovi ostida, ta'minotning yetmagan qismiga boshqa ko'char va ko'chmas mulklar olinishi mumkin. Asosiy ta'minotlar rasmiylashtirilgunga qadar ta'minot sifatida kredit qaytmaslik xatarini sug'urta polisi qabul qilinadi; 3) Kredit hisobiga inventarlar hamda uskunalar sotib olinishi nazarda tutilgan hollarda, kamida 20% boshlang'ich badal (loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari hisobidan) bilan kredit ta'minoti sifatida ko'chmas mulklar qabul qilinadi; 4) Onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun 20% boshlang'ich badal (loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari hisobidan)
18	<b>Kreditning ta'minlanganligi (%)</b>	Kamida 125%
19	<b>Kredit ta'minoti</b>	Yuridik yoki jismoniy shaxslarga tegishli likvid ko'chmas mulklar va transport vositalari garovi (asosiy ta'minotlar rasmiylashtirilgunga qadar ta'minot sifatida kredit qaytmaslik xatarini sug'urta polisi qabul qilinishi mumkin) ( <i>Onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun jismoniy shaxs kafilligi asosida</i> )

20	<b>Kredit foiz to'lovini qaytarish tartibi</b>	Har oyda
21	<b>Kredit ajratilish shakli</b>	Yetkazib beruvchining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan. Bir martalik yoki bosqichma-bosqich o'tkazish sharti bilan amalga oshiriladi
22	<b>Kreditni o'zlashtirish muddati</b>	Kredit shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 3 oy
23	<b>Moliyalashtirish manbasi</b>	Bank o'z mablag'i hamda jalb qilingan mablag'lar hisobidan
24	<b>Imtiyozli davr</b>	1) Kredit 0-2 yilgacha: imtiyozli davr 3 oygacha; Kredit 2-5 yilgacha: imtiyozli davr 6 oygacha. 2) Onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun imtiyozli davrsiz
25	<b>Imtiyozli muddatning boshlanishi</b>	Shartnoma imzolangan sanadan boshlab
26	<b>Kreditni qaytarish usuli</b>	Annuitet yoki differensial usulda
27	<b>Kredit asosiy qarz to'lovini qaytarish tartibi</b>	To'lov muddati kelgandan so'ng oyma-oy yoki loyihadan kelib chiqib choraklik qaytarish sharti bilan
28	<b>Muddatidan avval qaytarish</b>	Muddatidan avval to'lash imkoniyati mavjud
29	<b>Kreditlash jarayonida mijoz tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati</b>	Amaldagi Kreditlash Nizomining 1-ilovasiga asosan amalga oshiriladi
30	<b>Qo'shimcha shartlar</b>	Onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun kreditda mijozning talab qilib olinguncha hisobvarag'i "Ipoteka-bank" ATIBda bo'lishi lozim
31	<b>Qaror qabul qilish vakolati</b>	
	qaror qabul qiluvchi	Anderrayting
	qaror qabul qilish turi	Markazlashgan
	qaror qabul qilish usuli	Anderrayterlar xulosasiga asosan
32	<b>Risklar bo'yicha cheklovlar</b>	Risklarni tahlil qilish va modellashtirish direksiyasi tomonidan belgilanadi
33	<b>Risk mezonlari (so'rovnomalar)</b>	Risklarni tahlil qilish va modellashtirish direksiyasi tomonidan belgilanadi
34	<b>Mahsulotga e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlar</b>	Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi kompensatsiyalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi